

Korxona va tashkilotlarning hisobot shakllari ro'yxatini bilib olishlari uchun qo'llanma.

1.Foydalanuvchi brauzerdan “stat.uz” web saytiga kiradi. Sahifa ochilgandan so'ng o'ng tarafagini bo'limlar ichidan “Shakllar ro'yxatini tekshirish” bo'limiga kirishi kerak (1-rasm).

The screenshot shows the main menu on the left with various statistical categories. In the center, there is a large image of a conference room where several people are seated around a long table. Below this image is another smaller image of a busy market or bazaar. To the right, there is a sidebar with more links and a section titled 'TADBIRKORLAR UCHUN' which is highlighted with a red border. A yellow arrow points from the text 'Shakllar ro'yxatini tekshirish' in the sidebar to the corresponding link in the central content area.

uchrashuv o'tkazildi

Joriy yilning 22-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida UNICEF vakili bilan uchrashuv o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi markaziy dehqon bozorlarida alohida turdag'i ozlq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlarini to'g'risida

Ma'lumot (narxlarni ro'yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o'tkazilgan kun va vaqtidagi narx-navo olinadi, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o'zgarib turadi)

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2019 yil yanvar-dekabr)

Joriy davrda 189924,3 mld. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 70,7 % yoki 134329,5 mld. so'm jaib etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'larini hisobidan 29,3 % yoki 55594,8 mld. s

Barcha yangiliklar

Shaxsiy kabinet

Qonunchilik asoslari

Qayta baholash indekslari

Tanlanma kuzatuvlar

Hisobot shakllari

Shakllar ro'yxatini tekshirish

Estat 3.0 va komponentlari

1-rasm.

Ushbu oyna orqali foydalanuvchi hisobot shakllari ro'yxati haqida qisqacha ma'lumotga ega boladi va (agar ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa) ro'yxatdan o'tishi lozim.Buning uchun “Ro'yxatdan o'tish” tugmasi bosiladi (2-rasm).

The screenshot shows a sub-page under 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati'. It features a header 'Hurmatli korxona va tashkilotlar rahbarlari!', a text block about experimental services, and a contact section. A yellow arrow points from the text 'Shakllar ro'yxatini tekshirish' in the sidebar to the 'Dasturiy-teknik mutahassislar bilan aloqa:' section at the bottom of the page.

E'lom qilish taqvimi

Metama'lumotlar

Makroko'rsatkichlar

Milli hisoblar

Narx va indekslari

Investitsiyalar

Qurilish

Tashqi iqtisodiy faoliyat

Ichki savdo

Sanoat

Qishloq xo'jaligi

Ekologiya

Xizmatlar

Demografiya

Aholini ro'yxatga olish-2022

Harakatlar strategiyasi

Press-relerlar

Choraklik natijalar

Nashrlar – statistika haqida

Uslubly materiallar

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar

Diagramma va grafiklar

Iste'mol narxlarini indeksi kalkulyatori

Doimiy aholi soni

Saytdagi so'rovnomalar

Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati

Hurmatli korxona va tashkilotlar rahbarlari!

Ushbu eksperimental xizmat davlat statistika organlariga joriy yil uchun sizning tashkilotingiz tomonidan taqdim etiladigan davlat statistik xisobotlari ro'yxatini olish imkonini beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida nizomiga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2017 yildagi 690- sonli qarori) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, Siz tomoningizidan boshqa hisobot turlari taqdim etilishi zarur bo'lishi mumkin, bu xaqda Sizga tashkilotingiz ro'yxatdan o'tgan joydag'i xuduyidagi statistika organlari xabar beradi.

Korxona yoki tashkilotning topshiradigan statistik hisobotlar ro'yxatini olish uchun; Erlik (Elektron raqamli imzo) (korxona va tashkilotga tegishli) kalitingiz bilan ro'yxatdan o'ting:

Ma'lumot uchun:
2020-yilda davlat statistika hisobotlarini taqdim etuvchi subyektlar va hisobot shakllari ro'yxati:
oylik va choraklik hisobot shakllari taqdim etish muddatidan 15 kun oldin;
yillik hisobot shakllari 1-fevralgacha joylashtiriladi.

Dasturiy-teknik mutahassislar bilan aloqa: 71 230-81-44, 71 230-81-32

Illova test rejimida ishlamoqda

>>>Ro'yxatdan o'tish<<

2-rasm.

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish uchun quyidagi qadamlarni bajarishi lozim (3-rasm).

- ERI (elektron raqamli imzo) kalitini tanlaydi.
- ERI (elektron raqamli imzo) kalitini tanlash orqali korxona yoki tashkilot INN sini sistema avtomat tarzda o'zi topadi.
- Foydalanuvchi 6 ta belgidan kam bo'limgan, o'zi istagan parolni tizimga kiritadi.
- Foydalanuvchi "Saqlash" tugmasini bosadi.

Foydalanuvchi yuqoridagi qadamlardan muvaffaqiyatli o'tishi uchun uning kompyuteri quyidagi talablarga javob berishi kerak.


- a) Foydalanuvchi kompyuter sistemasi Windows 7 versiyadan yuqori bo'lishi kerak (Windows XP dasturni qo'llab-quvvatlamaydi).
- b) Foydalanuvchi kompyuterida "e-IMZO" dasturi o'rnatilgan bo'lishi va yoqilgan holda bo'lishi kerak.

Eslatma: Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tayotganda faqat har bir korxona yoki tashkilot uchun bitta parol registratsiyadan o'tadi. Ya'ni har bir korxona yoki tashkilot uchun alohida parol terib ro'yxatdan o'tishi shart. Bundan tashqari tanlanayotgan ERI kalit faqat yuridik shaxsga tegishli bo'lishi kerak (jismoniy shaxslarga tegishli kalit bilan emas).

The screenshot shows the login page for the State Statistical Committee of Uzbekistan. At the top, there are two logos: the national emblem of Uzbekistan on the left and the UZSTAT logo on the right. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA Q'OMITASI". Below the title, there is a link "Orqaga qaytish" (Return). The main heading is "Ro'yxatdan o'tish". A sub-instruction reads "Korxona yoki tashkilotningizga tegishli, ERI (elektron raqamli imzo) kalitingizni tanlang". There is a red box highlighting the dropdown menu for selecting an organization or institution. Below it, there are three input fields: "Inn:" with a placeholder "00000000000000000000", "Parolni kriting:" with a placeholder "1234567890", and "Parolni takrorlang:" with a placeholder "1234567890". A blue button labeled "9008" is positioned above a red box highlighting the "Saqlash" (Save) button. Below the "Saqlash" button, there is a yellow arrow pointing to the "Rasmdagi kodni kriting:" field, which contains "9008". At the bottom, a blue bar contains the text "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika q'omitasi 2020 yil."

3-rasm.

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tib bo'lganidan so'ng "Orqaga qaytish" tugmasini bosadi (4-rasm).



The screenshot shows the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. At the top, the national emblem of Uzbekistan is on the left, followed by the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA Q'OMITASI" and the "UZSTAT" logo on the right. Below this, there is a red rectangular box containing the text "Orqaga qaytish" (Return). A yellow arrow points from the text above to this red box. The main content area has a blue header "Ro'yxatdan o'tish" (Logout). Below it, there is a note: "Korxona yoki tashkilotningizga tegishli, ERI (elektron raqamli imzo) kalitingizni tanlang" (Select the institution or organization to which you belong, ERI (electronic digital signature)). There are three input fields: "Inn:"*, "Parolni kriting:"*, and "Parolni takrorlang:*. A large blue button labeled "Ro'yxatdan o'tish" (Logout) is centered below these fields. Below the button, there is a field for "Rasmdagi kodni kriting:"* and a "Saqlash" (Save) button. At the bottom, a blue bar contains the text "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 2020 yil."

4-rasm.

ERI (elektron raqamli imzo) kalitini tanlaydi. Ro'yxatdan o'tgan parolni terib "Kirish" tugmasini bosadi (5-rasm) va o'ziga kerakli hisobot shakllari ro'yxatini ekranga chiqaradi.Masalan (6-rasm).

5-rasm.

Hisobot shakllar

Hisobot turi	Hisobot nomi	Hisobot topshirish muddati
1-invest shakli(yillik)	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET ELDAN KIRITILGAN INVESTITSIYALAR VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAN ChET ELGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSIYALAR TO'G'RISIDA HISOBOT	1 maydan kechiktirmay
1-innovatsiya shakli yillik	"Innovatsiya faoliyati to'g'risida hisoboti"	18 martdan kechiktirmay, chet el sarmoyasi ishtirokidagi yuridik shaxslar 26 martdan kechiktirmay
1-fan shakli yillik	"Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlalmalarni bajarilishi hamda oliy toifali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash to'g'risida hisobot"	18 martdan kechiktirmay, chet el sarmoyasi ishtirokidagi yuridik shaxslar 26 martdan kechiktirmay
2-narx shakli oylik	"SANOAT KORXONASINING XARID QILINGAN MODDIY RESURSLARI O'RTACHA NARXLARI TO'G'RISIDA HISOBOT"	hisobot davrining keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay
1-transport shakli choraklik	"Avtomobil transporti ishi to'g'risida hisobot"	hisobot davridan keyingi oyning 5 sanasidan kechiktirmay
2-invest shakli yillik	"Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot"	15 fevraldan kechiktirmay
1-mehnat shakli choraklik	"Mehnat hisoboti"	hisobot davridan keyingi oyning 6-sanasidan kechiktirmay

6-rasm.